



O'QUVCHILARDA MUSIQIY FIKR VA MUSIQIY IDROKNI HOSIL QILISH SHAKLLARI

Husanova Muyassar Chapayevna¹

Alimova Saboxat Zarifovna²

Ilmiy rahbar : Azimov Baxtiyor `Ganiyevich³

¹Termiz Davlat Universiteti Magistratura bo'limi 5A111101 – Milliy liboslar va San`at fakulteti Musiqa ta'limi yo`nalishi 2- bosqich magistranti,

²Termiz Davlat Universiteti Milliy liboslar va San`at fakulteti o`qituvchisi,

³O`zbekiston Davlat Konservatoriyasi pedagogika fanlari nomzodi dotsent
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6369549>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 17-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Musiqa , idrok , musiqiy fikr, milliy cholg`u, musiqiy asar, o`quvchi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada siz, o`quvchilarda musiqiy fikr va musiqiy idrokni hosil qilish shakllari haqida ma'lumotlar keltirilgan. O`quvchilarda musiqiy idrokni hosil qilishda, musiqa asoratini ongli idrok etish, asar mazmunini tushuntirishda o`quvchilarda musiqa tinglash mashg`ulotlarini to`g`ri tshkil etish muhimdir. Bu ularda tajriba to`plash va undan oqilona foydalanish, shu bilan birga ma`naviy dunyosini boyitishga yordam berishi haqida ma'lumotga ega bo`lasiz.

Har qanday jamiyatda yosh avlod tarbiyasi davlat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan . Chunki , jamiyatning jamiyat sifatida ravnaq topishi va rivojlanishi ana shu kelajak avlod tarbiyasiga bog'liq . Ma'lumki, tarbiya shaxsni jamiyatdagi ijtimoiy –iqtisodiy ishlab chiqarish munosabtlariga tayyorlash, shuningdek, uning ma'naviy, aqliy, va musiqiy rivojlanishiga muntazam ta'sir etib boruvchi uzluksiz jarayon . Asosiy vazifa ana shu yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularning kuch va salohiyatini shu Vatanga muhabbat, yurt tinchligi va osoyishtaligi, Respublika mustaqilligini mustahkamlash yo'lida safarbar etishdir. Dunyoning ko'pgina davlatlari qatori O'zbekiston Respublikasi

hukumatining olib borayotgan odilona siyosati natijasida amalga oshirayotgan keng ishlar ko'lamida payqash qiyin emas.

Endilikda respublikamizda ma'naviyat va madaniyat masalalariga alohida, birinchi masala sifatida katta e'tibor berilib kelinmoqa. Shuni ta'kidlash joizki, dunyoning qator mamlakatlari qatori O'zbekistonda inson ma'naviy hayotining yuksalishida, ma'no va mazmun kasb etishida, musiqaning madaniy hayotida yanada chuqurroq kirib borishida keng imkoniyatlar yaratilganki, bunda davlatlarning o'zi bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022 – yil 2- fevral 112 – qarorida) Madaniyat va san 'at sohasida istedodli



yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plami va o'quv - metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq 2022-2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab - quvvatlashga qaratilgan chora - tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan. Chunki, barkamol avlod kamolotida musiqa tarbiyasini amalga oshirishga musiqa sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlashda ta'lim muassasalarida "Musiqa o'qitish metodikasi" fani katta ahamiyat kasb etadi. "Musiqa o'qitish metodikasi" fan sifatida o'zining tizimiga mansub bo'lib, musiqiy fanlar tarmog'ida o'zining mustaqil o'rniga ega. Unga musiqiy tarbiya mazmuni, metodlari sifat va samaradorlikka erishish yo'llari, qonuniyatlari o'rganiladi. O'quvchi - yoshlarni musiqa mashg'ulotlari asosida tayyorlashda nafosat, musiqa fiziologiyasi, musiqiy psixologiya kabi qator fanlarning tajribalariga tayanish lozim, chunki musiqa inson ruhiyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, unga eng oson ta'sir etuvchi kuchhamdir.

O'quvchilarda musiqiy idrokni hosil qilishda, musiqa asoratini ongli idrok etish, asar mazmunini tushuntirishda o'qituvchilarda musiqa tinglash mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish muhimdir. Bu ularda tajriba to'plash va undan oqilona foydalanish, shu bilan birga ma'naviy dunyosini boyitishda

yordam beradi. Yoshlarni musiqaga bo'lgan qiziqishida musiqiy estetik didni tarbiyalaydi.

Musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. O'quvchi darslarning barcha faoliyatlari jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi. Ammo musiqa darslarining musiqa tinglash qismi oldida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'ladi. Masalan: milliy cholg'u asboblari ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u, cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida o'quvchilarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Darslarda musiqa tinglash uchun quyidagi talablarga ko'ra asarlarni tanlash tavsiya etiladi.

- O'quvchilarning musiqani idrok etish va musiqiy asarlarda tasviriy etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

- Musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish, tinglangan asarlar eslash, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqini bilish hamda tinglangan asarga ma'lum darajada baho bera olish.

- Musiqiy asarlarni ishtiyoq bilan tinglash va eslash, olgan taassurotlar haqida o'ylash va fikr bildirish.

- Musiqa tinglashda turg'un diqqat - e'tiborni va tinglash madaniyatini, boshlang'ich elementlarini shakllantirish.

- Musiqiy didni shakllantirishga oid qiziqarli, mazmunli asrlarni tinglash.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqat - e'tibori uncha barqaror bo'lmasligi sababli



ular yorqin yangraydigan kichik hajmdagi musiqiy asarlarni idrok etishga qodir bo'ladilar. Ular ayniqsa, kichik hajmdagi kuylarni yaxshi idrok etadilar, chunonchi, ohang musiqaning mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi qo'shiq aytganda yoki biror cholg'u asarni ijro etganda, uning tanish ovozi, sof ohangi, ifodali ijrosi, mimikasi va ishoralari o'quvchilarni maftun etishi lozim. Shundagina o'quvchida bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish, qayg'urish, o'ylanish kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishda, o'qituvchining qisqa va lo'nda mazmunli qiziqarli kirish so'zi, musiqa tinglash jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Musiqiy asarni tinglashdan oldin o'quvchilarga ma'lumot berilsa ular asarni to'liq idrok etishga harakat qiladilar. Musiqa asarini 2-3 mashg'ulot davomida tinglash shart. Chunki, har bir tinglashda, o'quvchi uchun asarning yangi qirralari namoyon bo'ladi va unga nisbatan qiziqishi, muhabbati ortib boradi. Yildan yilga o'quvchilar o'z yoshiga, bilim va malakalariga muvofiq, musiqa asarni to'la idrok etishga qodir bo'ladi.

O'quvchilarda juda yoshligidan boshlab musiqa xissiyotini, idrokini tarbiyalash lozim, bu esa uning ruhiy holatini mustahkamlaydi, degan g'oyani ilgari suradi. Darhaqiqat, musiqa insonni ruhiyatiga samarali ta'sir etuvchi vosita, balki o'z mohiyati va jamiyatdagi maqsad va vazifalariga ko'ra, tarbiya vositasi hamdir.

Musiqani idrok etishning vazifasi va mazmunini aniqlash muhimdir. Bular shaxsning har tomonlama rivoji, jumladan, estetik tarbiyasi vazifalar bilan bog'liq umumiy maqsad bilan belgilanadi. Bunday

vazifalar o'qituvchilarni musiqa sohasidagi faoliyatga jalb etish, badiiy musiqaga estetik idrok etishni va emotsional o'zlashtirishni rivojlantirish, unga muhabbatni tarbiyalash, musiqali qobiliyatni o'stirish, musiqali didni shakllantirish, o'quvchilar badiiy ijodkorlik iqtidorini rivojlantirishdan iborat bo'lmog'i kerak. Musiqaning o'quvchilar hissiyoti va intilishiga, mazmuniga va his etishiga katta ta'sirini hisobga olgan, haqqoniy va voqiylikni to'g'ri aks ettirgan musiqali asardan o'rinli foydalanish alohida o'rin tutadi.

7-8 yoshli o'quvchilarda esa erkin, ixtiyoriy tarzda diqqat e'tibor shakllantirib, musiqani diqqatni yig'ib tinglash, uning ayrim detallarini anglab olish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ularda musiqaga qiziqish ko'proq sevimli asarlarini takror - takror tinglash jarayoni yaxshi rivojlanadi. Ular musiqadagi umumiy kayfiyatni yaxshi sezib, asarda badiiy obrazning rivojlanib borishini kuzatishni o'rganib boradilar. Yangi asar bilan ilk bor tanishtirishga o'qituvchining qisqa va qiziqarli tushuntiruv so'zi kata rol o'ynaydi. Cholg'u kuylari xarakteri va badiiy mazmuni haqida bolalarga tushuncha berilsa, ular asarni yaxshi idrok etadilar. Asarni 2-3 mashg'ulot davomida takroran tinglash shart, chunki har bir tinglashda bola uchun asarning yangi - yangi qirralari namoyon bo'ladi va asarga nisbatan ularning muhabbati oshib boradi.

Modomiki, shunday ekan umum ta'lim va musiqa maktablarida olib borilayotgan "musiqa" darslarining mohiyatini bugungi kunda musiqa pedagogikasi nuqtai nazaridan o'zlashtirish, dars mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar asosida tashkil etish



maqsadga muvofiqdir . Buning uchun avvalambor, o'qituvchi yuqori darajadagi pedagogik texnologiyaning yaxshi egallagan zamonaviy innovatsion metodlardan chuqur tajriba va malakaga ega bo'lishi, dars ishlanmalarini o'quv elektron modul – asosida yaratilgan bo'lishi lozim , chunki bugungi kun musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli , idrokli , qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir .

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda, bu talabalarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi o'qituvchiga bog'liqdir . Zamonaviy maktab o'qituvchisi qator vazifalarni bajaradi . O'qituvchi o'quvchilar uchun dars paytida, qo'shimcha darslarda va shu bilan birga darsdan tashqari hollarda ham kerakli maslahatlar berishda bilimlar manbai egasidir. Ko'pchilik o'qituvchilar sinf raxbari vazifasini bajarib, tarbiya jarayoni tashkilotchilari bo'lib hisoblanadilar . Zamonaviy o'qituvchi ijtimoiy psixolog bo'lmasligi mumkin emas. Shuning uchun ham o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yo'lga sola olishi o'quvchilar jamoasida ijtimoiy – psixologik mexanizmlardan foydalanishni bilishi zarur. O'qituvchi maktabning pedagog jamoa a'zosi sifatida maktab hayoti faoliyatini yuritishda bevosita ishtirok etib, turli fan o'qituvchilari va sinf rahbarining metodik birlashmalarida ishlardi , topshiriqlarni bajaradi .

Bu o'rinda musiqiy mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning ijodiy faolligini ta'minlash alohida ahamiyatga molik. Musiqani tushunish , musiqiy fikr va musiqiy idrokni hosil qilish , uning hissiy emotsional ta'siridan bahramand bo'lish , malaka va ko'nikmalar qatori emotsional his tuyg'ularning ishtirokiga ham bog'liq . “

Bolalarni san'atga o'rgatish nihoyatta murakkab “ – deb takidlaydi taniqli kompozitor , pedagog D. B. Kabalevskiy , hamma murakkabligi shundaki , ularni emotsional tarzda qiziqitirmay turib chinakkam san'atga o'rgatish mutlaqo mumkin emas. Asarni ijro va idrok etishda his – tuyg'ular qanchalik faol va chuqur bo'lsa, ularni tushunish va o'zlashtirish, ta'sirlanish shuncha ongli va samarali bo'ladi. Bu xolatlar esa o'z o'rnida ijodiy faollik natijasida sodir bo'ladigan jarayondir. Zero , zerikarli va birxillik sinfda jonli xissiyot holatini vujudga keltira olmaydi . O'quvchilarni darsga qiziqitirish birinchi navbatda tishlash va ijro etish uchun tanlangan repertuar va uslublarga “ an'anaviy yoki innovatsion metodlar “ bog'liq. O'quvchilar uchun tanlangan asarlar repertuarining asosiy me'zoni ularning yoshi , qiziqishi , bilim va malakalari ko'nikmalari darajasiga bog'liq. Bu o'rinda zamonaviy kuylar, xalq kuylari, qardosh xalqlar va kompozitorlari asarlaridan foydalanish, darslarni yanada sermazmun va faol bo'lishini ta'minlaydi. O'quvchilarda xalq musiqasi merosiga bo'lgan mehr va muhabbat tuyg'ularini shakllanishiga kuchli ta'sir etadi. Har bir darsda ijodiy faollik yuzaga keladi .

Musiq a idrok qilishda harakatlarning roli muhimligi , musiqiy eshitish qobiliyatining shakllanishida qo'shiq aytishning muayyan ta'siri haqida guvohlik beruvchi dalillar musiq amaliyotida anchadan beri ma'lum . Tinglash tashqi shakllarning qo'shiq aytish , chalish , ritmik harakatlarda “ ichki eshitish “ yashirin harakatiga o'tish hodisasiga ma'lum . Bu dalillar idrokni yangicha yoritilishidir . Shunday ekan, har qanday pedagogik texnologiya ta'limning yangi loyihasini rivojlantiruvchi ta'lim



tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'qituvchining hamkorligi o'zaro muloqot, bir – biriga ko'rsatadigan ta'siri zamonaviy talablar asosida tashkil topishi lozim. Bunday jarayonda o'quvchilar bilan ishlash malakalari shakllanadi, o'quvchilarning faol, samarali faoliyat ko'rsatishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli ravishda pedagogik texnologiyasi ta'lim oluvchilarga qaratiladi, shuningdek shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikda faoliyatini hisobga olgan holda, o'quv materialini va ijro asarlarini o'zlashtirishga sharoit yaratadi.

Innovatsion texnologiya turini tanlash dars va mashg'ulotlarda qaysi darajadagi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish nazarda tutilganligiga bog'liqdir. O'quvchilarda musiqiy fikr va musiqiy idrokni hosil qilishda bu faoliyat turi eng qiziqarli mashg'ulotdir. Chapak va cholg'u asboblarida ritmik jo'r bo'lish, musiqaning karakteri va obrazini chuqurroq his etishda, ularga hos emotsional tuyg'ular hosil etish ayniqsa, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Darslarda o'quvchilar cholg'u asboblaridan foydalanish ijobiy natijalar berish bilan birga o'quvchilarning darsga intiluvchanligini, qiziqish va musiqiy uquvini xotirasi, ritmini his etish tuyg'usini o'stiradi. O'quv cholg'u asboblarida ijro etganda avval, o'quvchilar kuy – ritmini to'g'ri his etib ijro etishlari uchun, cholg'u asboblarida chalib, musiqaga jo'r bo'lishlari lozim. Birinchi ijrodagi yutuq va kamchiliklarni bartaraf qilib, yana bir takrorla, chiroyli, to'g'ri ijro etiladi so'ngra musiqiy uquv va bo'sh bo'lgan o'quvchilarga cholg'u asboblarida jo'r bo'lish taklif etiladi. Shu tarzda

sinfidagi o'quvchilarni galma – gal cholg'u asbobida jo'r bo'lishga undab, ularning qiziqishini oshiradi. Cholg'ularda chalishga hamma intiladi, albatta. Shuning uchun berilgan asarni o'quvchilar hato qilmay musiqani to'g'ri his etishga va hotirada saqlashga harakat qiladilar. Keyinchalik ijrochilik turlari murakkablashtiriladi. Ayni holda sinfni ikki guruhga bo'lib, I guruh chapak chalib, II guruh o'quvchilari jo'r bo'lishadi. Buni iloji bo'lsa magnitafon tasmasiga yozib yoki telefonga ham yozib olib bajarsa ham bo'ladi. Shuningdek, kuyni doskaga ko'rsatilgan grafik sur'ati va uning ritmiga tuzilmasini teng chorak va nimchorak notalar bilan ifodalash mumkin, biroq kartochkalardan ham foydalanilsa bo'ladi. Bunday mashg'ulotlarda dars mazmuni qiziqarli o'tadi, o'quvchilar bilimi mustahkamlanadi, ularda ijodkorlik, ijrochilik malakalari va musiqiy o'quv qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilarning cholg'u asboblaridan foydalanishi o'quvchilarning tembr uquvi, ritm tuyg'usi, diqqat va xotirasini rivojlantiradi. Cholg'u musiqasi janrlari – tabiat obrazlari bilan bog'liq cholg'u kuylari, lirik ohanglar, ayniqsa, milliy cholg'ular – nay navolari, g'ijjak ohanglari odatda qalb holatini, muhabbat va qayg'u tuyg'ularini ifodalaydi. Dutor kuylari raqs xususiyatiga ega bo'lib, ritm rivojida alohida ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Masalan, chertmak ohangi ritmni rivojlantiradi. Lapar esa tinglovchiga ritmik ruh bag'ishlaydi. Ushbu kuylar quvnoq va hayotiy bo'lib, o'quvchilar va boshqa tinglovchilarga zavq baxsh etadi.

O'quvchilarda yuqorida keltirilgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda, asosiy nazariy tarkibiy qismini tashkil etuvchi “Musika nazariyasi”, “Solfedjio”, “



Garmoniya “, “ Musiqiy cholgʻularni oʻrganish “ bilimlariga alohida eʼtibor qaratish muhimdir. Bu faoliyat oʻquvchilarda nota oʻqishni shakllantirish bilan bir qatorda musiqani ongli ravshida idrok etishni ham rivojlantiradi . Bu esa oʻquvchilarda darslarning vakal , xor , jamoa boʻlib qoʻshiq aytish , musiqa nazariyasi , musiqa tinglash kabi boshqa qator faoliyatlarini osonlik bilan oʻzlashtirishlarida juda katta yordam beradi . Darslarning unumli boʻlishi uchun dars mashgʻulotlari davomida solfedjio , yaʼni nota oʻqish , notaga qarab kuylash mashgʻulotlari barcha faoliyatlarni

nazariy va amaliy jihatdan bir-biriga bogʻlaydi.Ritmik his-tuygʻu va tafakkurni tarbiyalashda innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqayotgan pedagoglar buyuk allomalar meʼrosini oʻrganish, izlanish, dars jarayonida tadbiq etish, oʻquvchi yoshlarni improvizatsion fikrlash asosida musiqa bilan birgalikda ijodiy shugʻullanishning dastlabki koʻnikmalarini singdirish, ularning qobiliyatlaridan qatʼiy nazar, musiqaga jalb qilish individual ijodiy imkoniyatlarini ochish, tugʻma musiqiy qobiliyatni rivojlantirish bugungi kun talabi va asosiy maqsadi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nigʻmatjon Sharipov “ Xalq cholgʻularida ijrochilik “ Oʻquv qoʻllanma. Toshkent – 2017
2. Nafisa Yusupova “ Musiqa savodi, metodikasi va ritmika “ Oʻquv qoʻllanma . “Musiqa“ nashriyoti Toshkent – 2010
3. Gulnora Sharipova “ Musiqa va uni oʻqitish metodikasi “ Oʻquv qoʻllanma . “Turon - iqbol “ Toshkent – 2006
4. Abramova M , Gʻaniyeva D “ Musiqa “ 2- sinf . Oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma . Gʻ. Gʻulom nashriyoti Toshkent - 2008